

Yosh ayol-qizlarning ilmiy-tadqiqot faoliyatini qo'llab-quvvatlash maqsadida davlat oliy ta'lim tashkilotlarida "Olima qizlar klubi" faoliyatini yo'lga qo'yish KONSEPSIYASI

Asos:

O'zbekiston Respublikasi Oliy-majlisi Senatining Fan, ta'lim va sog'liqni saqlash masalalari qo'mitasi hamda Xalq deputatlari Buxoro viloyati kengashining 2024-yil 5-oktabrdagi "Ilm-fan va ilmiy faoliyat to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining yoshlarni ilm-fan va ilmiy faoliyatga jalb etishga oid qismi Buxoro viloyatida ijro etilishi holatini o'rganish natijalari haqida"gi 233/1-son Qo'shma Qarori ijrosi yuzasidan Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 18-noyabrdagi 0-17-288-sonli nazorat rejasi.

Olima qizlar klubining maqsadi:

Davlat oliy ta'lim tashkilotlarida yosh ayol-qizlarning ilmiy-innovatsion, ijodiy salohiyatini rivojlantirish, innovatsion fikrlash va istiqbolli loyihalarni qo'llab-quvvatlash maqsadida "Olima qizlar klubi" faoliyatini yo'lga qo'yiladi.

"Olima Qizlar Klubi"ni tashkil etish orqali oliy ta'lim tashkilotlarida ayollar va qizlar ilmiy va professional faoliyatga keng jalb qilinadi hamda ularni ilm-fan, texnologiya, muhandislik, biznes, va boshqa sohalarda yetakchi mutaxassislar sifatida shakllantirishga xizmat qiladi.

Olima qizlar klubi tarkibi:

Olima qizlar klubi tarkibi klub raisi, kotibi va a'zolaridan tashkil topadi. Olima qizlar klubi tarkibi klub raisi, kotibi har o'quv yilida sentabr oyida tegishli oliy ta'lim tashkiloti rahbari tomonidan tayinlanadi va ular asosiy ishidan ajralmagan holda, jamoatchilik asosida faoliyat yuritadi.

Olima qizlar klubiga bakalavriat, magistratura hamda doktorantura bosqichlarida tahsil olayotgan ayol-qizlar a'zo bo'ladi.

Olima qizlar klubi tarkibi klub raisi va kotibi etib, bakalavriat, magistratura hamda doktorantura bosqichlarida tahsil olayotgan ayol-qizlar ham tayinlanishi mumkin.

Olima qizlar klubining vazifalari:

- Oliy ta'lim tashkilotlarida tahsil olayotgan ayollar va qizlarning ilmiy-innovatsion faoliyatga keng jalb qilish, ularning ilmiy loyihalardagi ishtirokini oshirish va ilmiy-tadqiqot ishlari bilan shug'ullanishga yo'naltirish;

- Ayollar va qizlar ishtirokida seminar-treninglar, konferensiya va forumlar tashkil etish, unda yirik ilmiy markazlar, professor-o'qituvchilar va muvaffaqiyatli ayol-qizlarni mentor sifatida jalb qilish;

- Ayollar va qizlarni ilmiy va texnologik innovatsiyalarni yaratishga ilhomlantirish, startaplar va yangi g'oyalar uchun maydon yaratish;

- Ilmiy-innovatsion loyihalar bo'yicha mahalliy va xorijiy grant tanlovlariga ayollar va qizlarni tayyorlash hamda ularning ishtirokini ta'minlash;

- Ayollar va qizlarni ilmiy-innovatsion faoliyatini qo'llab-quvvatlash maqsadida yetakchi ilmiy markazlar, innovatsion texnoparklar, akselerator va inkubatorlar bilan o'zaro hamkorlik aloqalarini o'rnatish;

- Ijtimoiy muammolarni hal qilish innovatsion yechimlar ishlab chiqish, ayollar va qizlarning huquqiy va fuqarolik dunyoqarashini rivojlantirish hamda ijtimoiy faolligini oshirishga qaratilgan tizimli ishlarni amalga oshirish.

“Olima qizlar klubi” faoliyatini yo'lga qo'yish

“Olima qizlar klubi” faoliyatini samarali yo'lga qo'yicha maqsadida har o'quv yilining boshida tegishli oliy ta'lim tashkiloti rahbari tomonidan chora-tadbirlar rejasi tasdiqlanadi.